



USMON NOSIR SHERLARIDA ACHCHIQ HAYOT IZTIROBLARI

Xalilova Mardona Hasanjon qizi

*Namangan davlat chet tillari instituti Jahon
tillari fakulteti talabasi*

Tel: +998 (97) 466 13 03

E-mail: xalilovamardona024@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yillar o'tsada she'rlari hamon o'quvchilarni chuqur o'yg'a solayotgan, o'zbek she'riyatining zabardast vakili Usmon Nosir haqida so'z yuritamiz. Uning oltinga teng she'rlarini o'qib tahlil qilamiz. Bizga hali to'liq tanish bo'lmagan, biz uchun yangilik bo'lgan she'rlaridan bahramand bo'lamiz. Uning she'rlarini ta'sir kuchi yillar o'tsada nima uchun bu darajada sayqallanib ketayotgani haqida fikr mulohaza yuritamiz.

Kalit so'zlar: Usmon Nosir, she'riyat, ijodkorlar, his-tuyg'u, ta'sirli satrlar, milliy ruh, chaqmoq shoir.

XX asr o'zbek she'riyatiga chaqmoqday kirib kelgan va yashindek qisqa umr kechirgan shoir deya ta'riflanadigan Usmon Nosir o'zidan oz fursatda bo'lsada o'zidan boy meros qoldirgan. 1912-yil 13-noyabrda Namanganda tug'ilgan shoir otasidan juda erta yetim qoladi va onasi Qo'qonga boshqa kishiga turmushga chiqishga majbur bo'ladi. Shunday qilib Usmonning qolgan bolalik yillari Qo'qon bilan bog'lanadi. Qo'qon maktablarida o'qib yurganda iste'dodli shoir rus va jahon adabiyotining sara namunalarini o'rganadi va adabiyotga muhabbat qo'yadi.

"Ilhomning vaqti yo'q selday keladi, Jalloddek rahm etmay dilni tiladi. Ayondir bir kunni aylaydi xarob." deya Usmon Nosir qalbidagi tug'yonlarini ifodalaydi. Rostan ham shoir qisqa umr kechirishiga qaramasdan uning "Quyosh bilan suhbat", "Safarbar satrlar", "Traktorobod", "Yurak", "Mehrim" kabi she'riy to'plamlari "Norbo'ta", "Naxshon" kabi dostonlari "Atlas", "Zafar", "So'nggi kun", "Dushman" kabi dramalari dunyo yuzini ko'rdi. U she'rlarida alangali tuyg'ularni susaytirmas inson ruhiy dunyosini po'rtanalar kabi ko'rsatardi.

YURAK

Yurak, sensan mening sozim,

Tilimni nayga jo'r etding.

Ko'zimga oyni berkitding,

Yurak, sensan ishqibozim.

Senga tor keldi bu ko'krak,

Sevinching toshdi qirg'oqdan,

Tilim charchar, ajab, gohi

Seni tarjima qilmoqdan.



Sen, ey sen — o‘ynoqi dilbar,
Zafardan izla yoringni.
To‘lib qayna, toshib o‘yna,
Tirikman, kuyla boringni!

Itoat et!

Agar sendan

Vatan rozi emas bo‘lsa,

Yoril, chaqmoqqa aylan sen,

Yoril! Mayli, tamom o‘lsam!

O‘zbek she‘riyatida tuyg‘ularni bor bo‘yicha, dolg‘ali ko‘rsatish an‘anasi yo‘q edi. Milliy she‘riyatimiz odob andisha qoliplaridan chetga chiqmaslikka urinardi. Usmon Nosir ana shu qoliplarni buzishga jur‘at qilgan birinchi shoir edi. Uning yurak she‘ri ham undash ruhida yozilgan bo‘lib shoir o‘zining nohaq ayblanib qamoqda yotgan davrida yozilgan. Hech bir sabalarsiz qamoqqa olinishi buyurilgan shoir faqatgina yaqin do‘stlaridan ilinj kutardi lekin bir yaqin do‘sti unga barchasini tan olishni maslahat beradi va shunda qutulib ketishi osonroq bolishi uqtiradi. Katta majlis bo‘lib o‘tadi, majlis oxirida «ayblanuvchi»ning o‘ziga, shoir Usmon Nosirga so‘z beriladi. U haligi do‘stining «aytganini» qilib, aybini bo‘yniga oladi. Lekin qaysi aybini?! O‘zi ham bilmadi... O‘sha «mehribon maslahatchi» dik etib o‘rnidan turadiyu: «Ana, ko‘rdingizmi, u aybini bo‘yniga olyapti! Unga oramizda o‘rin yo‘q. Soyuzdan o‘chirilsin deganlar qo‘l ko‘tarsin!» deydi... Bu ertakka o‘xshaydi. O‘shanda Usmon zog‘lar orasida qolgan bulbulga o‘xshardi." Shunday qiyin vaziyatda qolib ketgan shoir qamoqdalik vaqtida ham o‘z erki, o‘z Vatan ozodligini hech kimga berib qoymadi. Oxirgi nafasi qolguncha bunday jamiyatdagi biqiq vaziyatni yo‘qotishga harakat qildi.

Shuning uchun ham uni juda samimiy so‘zlar bilan eslashgan. Masalan zamonasining yirik shoirlaridan biri Turob To‘la Usmon Nosir she‘riyati haqida shunday deydi: "U shunday to‘polon va to‘lqin bilan keldiki, uncha - muncha she‘riy uslub vaijodni to‘s to‘s qilib yubordi. Uni o‘zimizda" O‘zbekning Lermontovi" Moskva gazetalarida "Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi" deb yozishdi. Shuningdek, 1982-yil "Yoshlik" jurnalining noyabr oyidagi 11-sonida Ibrohim G‘afurovning "Yuragida bahor yashagan shoir" nomli maqolasi e‘lon qilingan. Olim mazkur maqolasida Usmon Nosir she‘rlardagi o‘ziga xos lirik qahramon haqida fikr yuritadi. Maqolada adabiyotshunos shunday fikrlarni keltiradi: "Biz Usmon Nosirni o‘z tili, o‘z ifodasi bilan YO‘LCHI deb ataymiz. U har bir she‘rida



bizga YO‘LCHI SIYMOSIDA gavdalanadi. (Farangiz Xidirova "Usmon Nosir ijodining o'rganilishi" maqolasidan).

Ijodkorning " Yurganmisiz birga oy bilan " deb nomlanuvchi she'ri ham e'tibordan chetda qolishi mumkin emas. Chunki bu she'r Usmon Nosir ayni Sibir o'rmonlarida o'pka sili bilan qattiq og'rib xastalikka chalib shimolga - boltiq va oq dengiz bo'ylariga safar qilgan davrda yozilgan. Hozir ushbu she'r bilan yaqindan tanishamiz:

Yurganmisiz birga oy bilan

Oqshom payti ko'm-ko'k o'rmonda?

Maysalarga shabnam qo'nganda,

Shunday yaxshi tinch bo'lar ekan.

Shitir-shitir o'ynar shabboda,

Barglar musiqasi bir shirin...

Havo go'yo tiniq, sof boda -

Ko'ngil sezar hayotning sirin.

Men mast bo'lib qoldim bu kecha,

Sil o'pkamni ancha yayratdim.

Uxlamasdan to tong otguncha

Dilginamni rosa sayratdim.

She'ning birinchi misrasidayoq ko'kdagi go'yo jim turgandek tuyulgan oy harakatga tushadi. U shoirga hamroq tutinib, ko'mko'k o'rmon oralab birga kezadi. Bu holat shoirga hozirga qadar izlab yurgan muhitni - sokinlik, tinchlikni hadya etadi.

Bir o'ylab ko'raylikchi, shoir qalbi nega shu qadar tinchlik, sokinlikni xohlaydi? Chunki bu paytda sobiq sho'ro davlatida mafkuraviy talvasalar juda kuchaygan edi. Xalq orasidan yetishib chiqqan ko'plab ziyolilarni ta'qib etish avj ola boshlagandi. Gazeta va jurnallar, tez tez chaqirilib turiladigan majlislarda, ayniqsa, shoir va yozuvchilar haqida ko'pdan ko'p tuhmat gaplar aytilardi. Shuning uchun ham shoir qalbi bezovta. Sherning oxirgi bandida shoir "sil o'pkam" deya faqat o'zining jismoniy xastaligi to'g'risida gapirmaydi, balki yuqorida aytib o'tganimiz - biqiq, tuhmat-u razolatga to'la muhitda siqilgan ko'nglini - ruhini nazarda tutadi. Bunday muhitda esa dilning sayrashini - erkin ijod qilishi to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi.

Oq dengiz, yaxshi qol

Oq dengiz, yaxshi qol! Yaxshi qol, Shimol!

Ko'nglimda ishqingni olib qaytaman.



Sochimni o‘ynaydi muzdek sho‘x shamol,
Men unga dardimni qanday aytaman?

Kechqurun qirg‘oqda aylanib tanho
Sevdim, sevib qoldim to‘lqinlaringni.
Oyni cho‘miltirgan tinch tunlaringni
Tushimda ko‘rganda ne qilarman, o’?

O‘ynagil so‘ng marta, chayqal, erkalan!

Armonim qolmasin ketar oldimda.

Bag‘ringda baliqday yuzgan oq yelkan

Bir umr sayr etgay mening yodimda...

Yaxshi qol, erkin suv! Yaxshi qol, dengiz!
To‘lqinlar, qo‘ynimga qizday kirdingiz...

Shoirning ushbu she'ri qalblarni sirqiratoshi hech gapmas. Xuddi oxirgi marta gaplashyotgandek, xuddi oxirgi marta ko'rayotgandek qaytib hech qachon bu joylarga kelmaydigandek dengiz bilan xayrlashishi insonni hayratga soladi. Shoirning nazarida barcha narsa oxirgisidek tuyuladi. Uchinchi misrada o'ynagil so'ng marta, chayqal, erkalan! Armonim qolmasin ketar chog'imda deya yozilgan misralar ham bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Chunki shoir qalbi bezovta, notinch edi Vatanidagi qama qamalar, nohaqliklar avj olgan davrda hech nimani oldindan aytib bo'lmasdi. Balki shoir nomi qoralanib bo'lgandir, balki uning she'rlari millatchilikka chorlovchi she'rlar deb topilgandir, balki Vataniga qaytgach uni qamoqqa olishar, balki uyidagi bor kitoblar musodara qilinar. Shu kabi o'ylar qurshovida qolib ketgan Usmon Nosir qay yo'lni tanlashdi bilmasdi. Shuning uchun ham bu she'rga uning iztiroblari, g'am alamlari singdirilgan desak yanglishmagan bo'lamiz.

Shoirning dil dardi achchiq bo'lsa, bu dard o'zgalar ko'ngliga ham ko'chadi. Ko'chganda esa mudrayotgan tomirlarni uyg'otib ko'chadi. Usmon Nosir she'rlari uning qismati kabi ana shunday achchiq dardni tuydiradi. Bulutsiz osmonda jimirlagan yulduzlarning shaffofligiday ko'ngilni qamashtiradi. Bu holatni tushuntirish qiyin. Shoir she'rlari insonni tushunib bo'lmas iztirobga soladi hamda yorug'likni ilg'atadi. (© U.Nosir, 2021).

Shoirning quyidagi she'ri ham uning achchiq iztiroblarini ifodalaydi:

Usmon Nosir

Men dunyodan ko‘z yummadim, yo‘q,

Dunyo yumdi mendan ko‘zini.

So‘zlar – kuragimga botgan o‘q,



Do'stlar ayamalar so'zini.

Vatanim, men seni sevardim,
Kel, lablarim bosayin, tuproq.
Tuproq, sen bilarsan ne dardim,
O'zim senga o'xshayman ko'proq.

Zamon, senga qo'llarim kerakmi,

Oyog'im kerakmi? Mana, ol!

Men bayroq qilganman yurakni,

U – dasturxon. Dasturxon – halol.

Yurtim, qora kiymagin zinhor,
Yig'lama, bag'rimni o'yma.
Tug'ilmagan Usmonlaring bor,
O'shalarni boy berib qo'yma!

Dunyo, ko'zlaringda ne qayg'u,

Yo anglab yetdingmi o'zingni?

Men axir ko'zimni yumdim-ku!

Sen endi ochdingmi ko'zingni?!

Otashqalb shoir Usmon Nosir xotirasi nafaqat u tug'ilib o'sgan yurtda, balki Kemerovada ham yodga olinadi. Kemerovoda har yili shoir she'riyatiga bag'ishlangan adabiy kechalar o'tkaziladi. Bundan tashqari, u yerda Usmon Nosir muzeyi ham bor. Usmon Nosir she'rlari Kuzbass shoirlari tomomidan rus tiliga tarjima qilingan. Shoir bir she'rida shunday bashorat qilgan edi:

Bargdek uzilib ketsam,

Unutmas meni bog'im:

Ishimni hurmat qilur,

Gullardan haykal qurur.

Ming yillardan keyin ham

Unutmas meni bog'im!

She'rlarim yangrab qolur —
Bir umrga o'lmayman!
Hayotimning davomi —
Kelajagimga homiy,
O'rnimga bog'bon bo'lur —
Bir umrga o'lmayman!

Bundan keyin ham Usmon Nosir haqida ko'plab tadqiqotlar qilinishi tabiiy. Prezidentimizning "Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir



tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi 2022-yil 10-fevral, PQ-125-son qarori qabul qilindi. Xususan, Namangan davlat universitetida 2022-yil 12-noyabr kuni o'tkazilgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman shoir ijodiga bag'ishlanganligi ham muhim ahamiyatga ega. Uning ezgu insoniy fazilatlar, Vatanga muhabbat va sadoqat, kelajakka yuksak ishonch tuyg'usi bilan kirib kelgan yetuk badiiy asarlarining xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ahamiyatlidir. XX asr 30-yillarida o'zbek she'riyatiga chaqmoqdek kirib kelgan va yashindek qisqa umr kechirgan, ko'zga ko'ringan va el og'ziga tushgan, otashin shoir, benazir ijodkor, dramaturg, iste'dodli tarjimon, o'zbek adabiyotining yorqin va zabardast shoirlaridan biri, shubhasiz, o'zbek Lermontovi, o'zbek adabiyotining chaqmoq shoiri Usmon Nosir hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov. N. Katta Iste'dod yulduzi so'nmas yulduzlardan biri bo'lsa ajab emas, Yangi O'zbekiston gazetasi.
2. Karimov N. Bir satri ham unitilmaydi. Sharq yulduzi. 1989-yil. 7-son.
3. Karimov N. Munavvar ijod va fojiali taqdir. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi 2022-yil 18-fevral. 6-son.
4. Mo'minova Z. Ko'ziga oyni berkitgan shoir. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi 2022-yil 20-may. 17-son.
5. Mirzo T. Usmon Nosirni eslab. Xalq so'zi gazetasi. 2022-yil 23-aprel.
6. Nosir U. Yurak, sensan mening sozim: she'rlar va dostonlar.
7. Abdurahmanova, M., & Malikova, Z. (2022). O 'ZBEK TILIDA SOTSIOLEKT. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 104-107.
8. Atadjanova, M. A. (2016). Animatic mythology and its functional nature in the current Uzbek prose. Молодий вчений, (1), 290-294.
9. Omanbaevna, O. M. (2020). MYTHS AND MODERN UZBEK STORIES (some commentary on the story of Nazar Eshankul's" The tune of a flute" myth-story). ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(12), 49-53.
10. Otajanova, M. (2022). ANALYSIS OF MYTHOLOGYSMS IN MODERN UZBEK PROSE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 11(5), 16-27.
11. Ruzimovna, K. G., & Xolmanova, Z. Formation and Development of Axiolinguistics. International Journal on Integrated Education, 3(9), 128-131.



12. Turdievna, K. Z., & Tursunalievna, A. M. (2023). Problems of Understanding and Translating Homonyms in the Artificial Intelligence System. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS, 2(5), 63-67.
13. Tursunaliyevna, A. M. (2021, August). OCCASIONALISM AND THEIR ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTIONS. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 19-23).
14. Xolmanova, Z. (2020). Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
15. Turdievna, X. Z. (2021). ROLE OF ALISHER NAVOI IN THE DEVELOPMENT OF MODERN LINGUISTICS. 국제언어문학, (49), 85-106.
16. Сабирова, Н. Э. (2017). Поэтические символы: становление и эволюция. Молодой ученый, (3), 684-686.
17. Холманова, З. Т. (2021). АЛИШЕР НАВОЙНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ. ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 1(2).
18. Bilveren, T. (2015). BABÜRNÂMEDEKİ BAZI KELİMELERİN TARİHİ VE ETİMOLOJİK TAHLİLİ . Kilis 7 Aralık Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi , 5 (9), 114-118. Retrieved from <https://dergipark.org.tr/en/pub/kilissbd/issue/45249/566814>